



## XALQ DEPUTATLARI NUROTA TUMAN KENGASHI

**210700, Nurota t., Islom Karimov sh. k 48, tel: (79)523-12-00**

2023 - yil 31 - iyul

VII-53-82-5-74-K/23

Nurota tumani hokimligi

### **Nurota tumani mahalliy byudjetining 2023-yil ikkinchi chorak ijrosi to‘g‘risida**

Nurota tumani mahalliy byudjetining 2023-yil ikkinchi chorak ijrosi O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi qabul qilingan “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-813-sonli qonuni hamda Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashining 2022-yil 31-dekabrdagi “Navoiy viloyatining 2023 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-45-184-5-0-K/22-sonli va Xalq deputatlari Nurota tumani Kengashining 2022-yil 31-dekabrdagi “Nurota tumanining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-45-174-5-74-K/22-sonli qarorlarida belgilangan ko‘rsatkichlar doirasida bajarilishi ta’minlandi.

Joriy yilda maxalliy byudjet daromadlarining ikkinchi chorak proqnoz rejasi 5 818,6 mln. so‘m belgilangan bo‘lib, haqiqatda 6 996,6 mln. so‘mga yoki 120,2 foizga ijro etildi. Byudjetga qo‘sishimcha 1178,0 mln so‘m daromad tushirildi.

Tuman mahalliy byudjetini xarajatlar qismi 2023-yil 2-chorakda 98 634,8 mln so‘m rejalashtirilgan bo‘lib, rejaga asosan 94 484,0 mln so‘m mablag‘lar begilangan tartibda moliyalashtirilishi ta’minlandi.

O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrdagi “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-813-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 27-moddasiga hamda tuman hokimining taqdimnomasiga muvofiq, tuman mahalliy byudjetining 2023-yil ikkinchi chorak ijrosi to‘g‘risida tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i S.Haydarovning hisobotini ko‘rib chiqib, xalq deputatlari Nurota tumani Kengashi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuning 6-, 24-moddalariga asosan,

### **QAROR QILADI:**

1. Tuman mahalliy byudjetining 2023-yil ikkinchi chorak ijrosi yuzasidan tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i S.Haydarovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. 2023-yilning ikkinchi choragida mahalliy byudjetning daromadlari 13 679,9 mln.so‘mga va xarajatlari 94 484,0 mln.so‘mga ijro etilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.
3. Tuman davlat soliq inspeksiysi (O.Jo‘raqulov) va tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S.Haydarov)lar tuman mahalliy byudjetining 2023-yil uchinchi chorakda daromadlarining belgilangan reja ko‘rsatkichlarini daromad turlari bo‘yicha ijrosini hamda mahalliy byudjetga qo‘sishimcha daromadlar manbasini aniqlab, mahalliy byudjetga tushumini ta’minlasin.
4. Tuman sektor rahbarlari tuman mahalliy byudjetining 2023-yil uchinchi chorak daromadlar rejasi bo‘yicha to‘liq ijrosini ta’minlashni nazoratga olsinlar.
5. Tuman mahalliy byudjetining qo‘sishimcha manbalari tuman byudjeti hisobidan moliyalashtirilishi

nazarda tutilmagan tashkilotlarni joriy saqlab turish xarajatlari uchun yo‘naltirilishiga yo‘l qo‘yilmasligi belgilansin.

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rribosari (A.Bo‘riyev), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (S.Haydarov) tuman mahalliy byudjetining qo‘srimcha manbalari hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga har chorak yakuni bilan hisobot berib borishi;

Mahalliy byudjetning qo‘srimcha manbalaridan mablag‘ oluvchilarning rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalaniishi, shuningdek ushbu mablag‘larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rribosari (A.Bo‘riyev) va xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (F.Ermakov) zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi**



**A.Fayziyev**